

MUSTAQILLIK YILLARI O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA “ALPOMISH” EPOSI
TADQIQI: ILMIY YONDASHUVLAR, TALQINLAR VA QIYOSIY TAHLIL

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

TISU dotsenti (PhD)

Termez (Uzbekistan).

shaxnoza_norkulova@tues.uz

ORCID: 0009-0008-7546-7613

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20518127>

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqining qahramonlik dostoni “Alpomish”ning mustaqillik yillari (1991–2026) folklorshunosligida o‘rganilishi tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Tadqiqot mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy ishlarni — monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalarni qamrab oladi. Eposning epik tabiati, badiiy-uslubiy xususiyatlari, tarixiy-genetik ildizlari hamda doston versiyalari atrofidagi nazariy qarashlar qayta ko‘rib chiqilgan. T.Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, Q.Yo‘ldoshev singari yetakchi olimlarning ilmiy merosi asosida dostonning talqinlari, epik timsollar tizimi, motivlar evolyutsiyasi va eposning turkiy xalqlar madaniyati bilan o‘zaro aloqalari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy tadqiqotchilarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, “Alpomish” eposining xalq ruhini, milliy o‘zlikni va umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatidagi o‘rni ilmiy asosda dalillab berilgan. Tadqiqot natijalari mustaqillik davri folklorshunosligining metodologik asoslari, paradigmal o‘zgarishlari va istiqbolli vazifalarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Alpomish”, folklor, epik tadqiqotlar, mustaqillik davri folklorshunosligi, epik talqin, doston versiyalari, qiyosiy tahlil, milliy o‘zlik, turkiy eposlar, baxshichilik an‘anasi.

Аннотация. В статье системно анализируется изучение узбекского героического эпоса «Алпамыш» в фольклористике периода независимости (1991–2024). Исследование охватывает научные труды, созданные за годы независимости — монографии, диссертации и научные статьи. Пересматриваются теоретические взгляды на эпическую природу дастана, его художественно-стилистические особенности, историко-генетические корни, а также вопросы версионного многообразия. На основе научного наследия ведущих учёных — Т.Мирзаева, М.Саидова, Б.Саримсакова, М.Джуроева, К.Юлдашева — освещаются интерпретации дастана, система эпических образов, эволюция мотивов и связи эпоса с культурой тюркских народов. Проведён сравнительный анализ подходов узбекских и зарубежных исследователей; научно обоснована роль «Алпамыша» как литературного феномена, отражающего дух народа, национальную идентичность и общечеловеческие ценности. Результаты исследования способствуют определению методологических основ, парадигмальных сдвигов и перспективных задач фольклористики периода независимости.

Ключевые слова: «Алпамыш», фольклор, эпические исследования, фольклористика периода независимости, эпическая интерпретация, версии дастана, сравнительный анализ, национальная идентичность, тюркский эпос, бахшийская традиция.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the study of the Uzbek heroic epic “Alpomish” within the folklore studies of the Independence period (1991–2024). The research encompasses scholarly works produced during the years of independence, including monographs, dissertations and scientific articles.

The theoretical perspectives on the epic nature of the dastan, its artistic and stylistic characteristics, historical and genetic roots, as well as questions of versional diversity, are reconsidered. Drawing on the scholarly heritage of leading researchers — T. Mirzayev, M. Saidov, B. Sarimsoqov, M. Jo‘rayev, and Q. Yo‘ldoshev — the article illuminates the interpretations of the dastan, the system of epic images, the evolution of motifs, and the connections of the epic with the culture of the Turkic peoples. A comparative analysis of approaches taken by Uzbek and foreign researchers is conducted, and the role of “Alpomish” as a literary phenomenon reflecting the spirit of the people, national identity and universal values is scientifically substantiated. The research findings contribute to defining the methodological foundations, paradigmatic shifts and prospective tasks of folklore studies during the Independence period.

Keywords: “Alpomish”, folklore, epic studies, folklore studies of the Independence period, epic interpretation, dastan versions, comparative analysis, national identity, Turkic epics, bakhshi tradition.

Kirish

Insoniyat tafakkurining eng qadimiy va boquvchi manbalaridan biri sifatida xalq og‘zaki ijodi har bir millatning ma‘naviy o‘zligini saqlovchi madaniy kod vazifasini bajaradi. Bu boyliklar tizimida qahramonlik eposlari alohida o‘rin egallaydi: ularda xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy ideallari va estetik tafakkuri uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek folklorining shoh asari — “Alpomish” dostoni mana shunday epik tafakkurning yuksak namunasi bo‘lib, u nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun turkiy dunyoning umumetnomadaniy merosini ifoda etadi.

1999-yilda YuNESKO shafeligida “Alpomish” dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda nishonlangani folklorshunoslik fanining yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur yubiley munosabati bilan amalga oshirilgan ilmiy tadbirlar, tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar va nashr qilingan tadqiqotlar majmuasi eposning ilmiy o‘rganilishini sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tardi. Mustaqillik yillarida o‘zbek folklorshunosligi sho‘rolar davrining mafkuraviy cheklovlaridan xalos bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, an‘naviy qadriyatlarni tiklash va dunyo folklorshunoslik fani bilan integratsiyalashuv yo‘nalishida tub o‘zgarishlarni boshidan kechirdi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: birinchidan, mustaqillik davrida “Alpomish” tadqiqotlari yangi metodologik tamoyillar — germeneytik, semiotik, mifopoetik va qiyosiy-tipologik yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda; ikkinchidan, eposning turkiy xalqlar madaniyati kontekstidagi o‘rni va jahon folklorshunoslik fanida tutgan mavqei qayta tahlil etilmoqda; uchinchidan, doston yosh avlod ma‘naviy tarbiyasida muhim manba sifatida ta‘lim tizimiga keng joriy qilinmoqda. Shu sababli mustaqillik yillarida “Alpomish” eposi atrofida shakllangan ilmiy tafakkurni umumlashtirish va baholash zarurati paydo bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsadi — mustaqillik davri (1991–2024) o‘zbek folklorshunosligida “Alpomish” eposiga oid yaratilgan ilmiy ishlarni tizimli o‘rganish, ulardagi yondashuvlar, talqinlar va metodologik paradigmalarni tahlil qilish, qo‘lga kiritilgan natijalar va dolzarb muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sirasiga eposning epik tabiati va badiiy-uslubiy xususiyatlariga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirish, doston versiyalari va variantlari atrofidagi tadqiqotlarni baholash, o‘zbek va xorijiy olimlar yondashuvlarini qiyosiy o‘rganish hamda eposning milliy va umuminsoniy ahamiyatini ochib berish kiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

“Alpomish” eposi ilmiy tadqiqotining tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga borib taqaladi. Sho‘rolar davrida V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifov, A.K.Borovkov, M.Afzalov, T.Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov singari olimlar tomonidan asos solingan ilmiy maktab mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur davrda eposshunoslik mustabid mafkura ta’siridan xalos bo‘ldi va milliy o‘zlikni anglashning ilmiy-nazariy poydevoriga aylandi.

Tadqiqot mavzusining nazariy poydevorini bir necha yo‘nalishdagi manbalar tashkil etadi.

Birinchi yo‘nalishni eposning matn-poetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil qiladi: T.Mirzayevning monografik ishlari, M.Saidovning badiiy mahorat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari, Q.Yo‘ldoshevning “Alpomish” talqinlari”ga oid risolasi, I.Yormatovning eposning badiiy xususiyatlari haqidagi izlanishlari. Ikkinchi yo‘nalish — mifopoetik va qiyosiy-tipologik tadqiqotlar: bu sirada M.Jo‘rayevning mifologik tafakkur va doston aloqalariga, Sh.T.Norqulovanning eposning onomasiologik asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uchinchi yo‘nalishni xorijiy olimlar — V.M.Jirmunskiy, B.N.Putilov, H.B.Paksoy, K.Rayxl, O.Inanlar yaratgan tadqiqotlar tashkil etadi.

Tadqiqotda umumilmiy va xususiy filologik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tarixiy-genetik metod eposning kelib chiqish ildizlari va shakllanish bosqichlarini aniqlashda, qiyosiy-tipologik metod turkiy xalqlar epik an‘anasi doirasida “Alpomish”ning o‘rni va o‘ziga xosligini belgilashda, germenevtik yondashuv esa doston matnining ma’no qatlamlarini ochib berishda qo‘llanildi. Shuningdek, kontent-tahlil va statistik usullar mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy ishlar bibliografik tasnifini tuzishda asqotdi.

Tahlil va natijalar

1. “Alpomish” dostonining epik tabiati va tarixiy-genetik ildizlari

“Alpomish” turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, qadimiy ildizlarga ega bo‘lgan qahramonlik dostonidir. Asar markazida Hakimbek — laqabi Alpomish bo‘lgan jasoratli bahodirning amakisi Boybo‘rini, suyukli yori Barchinoyni qalmoqlar yurtidagi azoblardan qutqarib, ona-Vatanga olib qaytish hamda murod-maqсадiga erishish syujeti yotadi. Doston ikki qismdan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zining badiiy yaxlitligi va g‘oyaviy mustaqilligiga ega.

Eposning tarixiy-genetik ildizlari masalasida o‘zbek folklorshunosligida bir qancha konseptual qarashlar shakllangan. T.Mirzayev fikricha, “Alpomish”ning ilk shakllanish davrini ilk o‘rta asrlar — VI–VIII asrlar bilan bog‘lash mumkin, biroq dostonning epik an‘ana sifatida to‘la qaror topishi turkiy xalqlarning XV–XVI asrlardagi etnomadaniy jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Asarning syujet tagzaminida qadimiy yarim mifologik motivlar — bahodirning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, sehrli ko‘makchilar, qahramonning vaqtinchalik “o‘limi” va “qayta tirilishi”, sevikli yorni izlab safarga chiqish — kabi arxetipik unsurlar singdirilgan.

B.Sarimsoqov “Alpomish” eposi haqida uch etyud” hamda “Alpomish — klassik epos namunasi” maqolalarida eposning klassik epik tipga mansubligini nazariy jihatdan dalillab berdi.

Olim klassik eposning belgilari sifatida monumental syujet, idealizatsiyalashgan bosh qahramon, an‘anaviy poetik formulalar, kompozitsion barqarorlik va kollektiv tafakkur ifodasini ko‘rsatadi. Sarimsoqovning konsepsiyasiga ko‘ra, “Alpomish” mana shu jihatlar bo‘yicha “Manas”, “Edige”, “Ko‘r o‘g‘li” singari turkiy klassik eposlar qatorida munosib o‘rin egallaydi.

2. Eposning badiiy-uslubiy xususiyatlari va matn poetikasi

Mustaqillik yillarida “Alpomish” eposining badiiy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish ham yangi bosqichga ko‘tarildi. M.Saidovning “O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari” monografiyasi epik poetikani tizimli o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki yirik tadqiqotlardan biri sifatida ahamiyatlidir. Ishda baxshi mahoratining qonuniyatlari, an’anaviy badiiy formulalar tizimi, qofiyalanish va aruz xususiyatlari ilmiy tahlilga tortilgan.

I.Yormatovning “O‘zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida)” hamda “O‘zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati” risolarida doston badiiyatining murakkab qatlamlari — peyzaj, portret, monolog, dialog va lirik chekinishlarning epik matn tarkibidagi vazifalari yoritilgan. Tadqiqotchi xulosasiga ko‘ra, “Alpomish”da badiiy tasvirning eng samarali vositalaridan biri — bu giperbola va idealizatsiyaning uyg‘un birikuvini bo‘lib, u xalq tasavvuridagi ideal qahramon timsolini ko‘rkam aks ettirishga xizmat qiladi.

Q.Yo‘ldoshevning “Alpomish” talqinlari” risolasi esa dostonni o‘qish va o‘qitish, uning ma‘no qatlamlarini turli metodologik nuqtai nazarlardan kashf etish masalalariga bag‘ishlangan.

Olim eposning matn ostidagi g‘oyaviy-falsafiy ma‘nolarini — vatanparvarlik, oilaviy sadoqat, jasorat, do‘stlik kabi insoniy fazilatlarining badiiy ifodasi sifatida talqin qiladi. Yo‘ldoshev “Alpomish” millat uchun faqat o‘tmish emas, hozir va kelajak hamdir” degan tezisini ilgari surib, eposning zamonaviy ma‘naviy hayotdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslaydi.

3. Doston versiyalari va qiyosiy tahlil masalalari

“Alpomish” eposining versiyaviy ko‘pligi va variantlik xususiyatlari folklorshunoslikning markaziy muammolaridan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Akademik T.Mirzayev mazkur yo‘nalishda eng salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlardan biri sifatida tan olinadi. U eposning o‘zbek versiyasi va o‘ttizdan ortiq variantini yaxlit tizim sifatida monografik tarzda o‘rgandi, syujetning genetik ildizlari, yetakchi motivlarning yuzaga kelish tarixi va manbalarini, dostonning o‘zbek baxshilari repertuaridagi o‘ziga xos talqinlarini tahlil qildi.

T.Mirzayev shunday yozadi: umuminsoniy fazilatlarini o‘ziga singdirgan “Alpomish”dek katta bir eposning barcha mavjud variantlarini qiyosiy o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega, chunki busiz an’anaviy matnning ijodiy variantlari nimalardan iborat ekanini, dostonchi mahoratidagi individual xususiyatlarni, epik poeziya markazlari va maktablarining o‘ziga xos an‘analarini belgilab bo‘lmaydi. Mazkur uslubiy yondashuv keyingi tadqiqotchilar avlodi uchun metodologik orientir vazifasini o‘tadi.

Eposning turkiy versiyalari — o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy, bashqir va boshqa xalqlar epik an‘analaridagi shakllari qiyosiy-tipologik tahlilga tortilgan. Professor A.K.Borovkovning klassik tadqiqotida har bir versiyada o‘sha xalqning milliy an‘analari aks etishi dalillangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bu yo‘nalish yangi metodologik nuqtai nazarlardan, jumladan, qiyosiy mifopoetika va etnolingvistika prizmasidan davom ettirildi.

Sh.T.Norkulovning “Alpomish” dostonining onomasiologik asoslari” risolasi bu yo‘nalishdagi muhim yangiliklardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda dostonidagi onomastik birliklar — antroponimlar, toponimlar, etnonimlar va boshqalar — onomasiologik tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi ushbu birliklar ortida turgan tarixiy, etnik, ijtimoiy va mifologik qatlamlarni ochib beradi. Bu ish doston tilshunosligini onomastika fanining yangi metodologik yutuqlari bilan boyitishga xizmat qiladi.

4. Mustaqillik davri o‘zbek folklorshunoslarining yondashuvlari

Mustaqillik yillarida “Alpomish”ni tadqiq etgan o‘zbek olimlarining ilmiy maktabi bir necha avlodning hamkorligi va vorisligi asosida shakllandi. Hamid Olimjon, Hodi Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo‘rayev kabi olimlar dostonni ijtimoiy hayotning badiiy ijoddagi ifodasi sifatida tadqiq etganlar. Ularning ilmiy yondashuvlarida nazariy chuqurlik va matnshunoslik aniqligi uyg‘unlashgan.

M.Jo‘rayev tadqiqotlarida mifologik tafakkur va eposning o‘zaro aloqasi masalalari, qadimgi turkiy mifologiyaning epik an‘anada saqlangan izlari ilmiy tahlil qilingan. Olim “Alpomish” syujeti tarkibidagi qadimiy ritual-mifologik substratning izlarini — qahramonning vaqtinchalik o‘lim-tiriklik motivi, sehrli qush yoki ot ko‘makchi sifatida ishtirok etishi, raqib obrazidagi xtonik unsurlar — keng manbashunoslik asosida ko‘rsatib beradi. Ushbu yondashuv eposning chuqur mifopoetik qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi.

M.Kamoldinovaning “Alpomish” dostonini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” monografiyasi esa eposni o‘qitish metodikasi, uning ta‘limiy-tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda eposning yosh avlod ma‘naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni hamda interaktiv, integrativ va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim usullari bilan integratsiyalashuvi muammolari yoritilgan.

5. Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvi va qiyosiy tahlili

Turkiy xalqlar eposini, jumladan, “Alpomish”ni tadqiq etishda jahon olimlarining hissasi beqiyosdir. A.K.Borovkov, V.M.Jirmunskiy, B.N.Putilov, H.B.Paksoy, K.Rayxl, O.Inan, K.Reichl singari olimlar “Alpomish”ni jahon folklorshunoslik fanining tarkibiy qismi sifatida ilmiy muomalaga olib kirdilar. Bu olimlarning tadqiqotlarida eposning tipologik xususiyatlari, jahon epik an‘anasidagi o‘rni va o‘ziga xos belgilari obyektiv ilmiy nuqtai nazardan baholangan.

Professor A.K.Borovkov turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan “Alpomish” dostonini o‘rganish va to‘plash tarixini, har bir versiyada o‘sha xalqning milliy an‘analari o‘z ifodasini topganini o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq versiyalari asosida tahlil qilgan. U bosh qahramon Alpomishning do‘stlari (Qultoy, Qorajon) va raqibi (Ultontoz) obrazlaridagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilib, ikki bo‘limdan iborat bu asarning har bir qismi turli davrlarda yaratilgani va bo‘limlarning har biri o‘zicha mustaqil ravishda aytib kelingani haqida xulosa beradi.

M.I.Afzalov “Alpomish” eposining o‘sha davrda mavjud bo‘lgan o‘n ikki variantini bir-biriga qiyoslab, uning asosini xalqchil motivlar tashkil qilishini alohida qayd etadi va har bir variantning o‘ziga xos badiiy fazilatlari xususida ham mulohaza yuritadi. V.M.Jirmunskiyning fundamental tadqiqotlari turkiy xalqlar eposini jahon folklorshunosligi kontekstida o‘rganishning yo‘l-yo‘riqlarini belgilab berdi va “Alpomish”ni o‘g‘uz-qipchoq epik an‘anasining muhim halqasi sifatida qaror toptirdi.

Mustaqillik davrida o‘zbek va xorijiy olimlar yondashuvlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek folklorshunosligi xorijiy maktablarning nazariy yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirgan holda, milliy mintaliteti, til xususiyatlari va madaniy kontekstga asoslangan o‘ziga xos metodologik konsepsiyani shakllantirdi.

Bu metodologiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri — matnshunoslik aniqligi, milliy o‘zlikka asoslangan talqin va xalq baxshichilik an‘anasi bilan uzviy bog‘liqlikdir.

6. Epik timsollar tizimi va motivlar evolyutsiyasi

Dostondagi epik timsollar tizimini o'rganish mustaqillik davri folklorshunosligining yana bir muhim yo'nalishini tashkil etadi. Bosh qahramon Alpomish ideal bahodir timsoli sifatida xalqning eng ezgu insoniy fazilatlarini — jasoratlik, halollik, sadoqatlik, oilaparvarlik, vatanparvarlik singari sifatlarni o'zida mujassam etadi. Barchinoy timsoli esa ideal o'zbek ayolining — go'zal, aqlli, vafodor, sabrli, jasur qiyofasini gavdalantiradi.

Yordamchi qahramonlar — Qultoy va Qorajon — eposning aksiologik tuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Qultoyning qariya cho'pon-mehribon murabbiy obrazi xalq donoligi va tajribasi ramzi sifatida talqin qilinadi, Qorajon esa millatlar va elatlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik g'oyasini ifoda etadi. Salbiy qahramonlar — Ultontoz, Surxayil kampir, Toychixon — eposda yaramas xulq-atvor, sotqinlik, hiyla-nayrang singari illatlar tashuvchisi sifatida tasvirlanadi.

Motivlar evolyutsiyasi nuqtai nazaridan qaraganda, “Alpomish”da turli davrlarning ijtimoiy-tarixiy izlari uchraydi. Eposda urug'chilik tuzumi davriga oid arxaik motivlar — totemizm, animizm, kult ritualining izlari saqlanib qolgan bo'lsa, keyingi davr qatlamlarida feodal munosabatlar, davlatchilik, urush va sulh masalalari aks etgan. Mustaqillik davri tadqiqotlarida bu turli xronologik qatlamlarni ajratib, har birining badiiy va funksional rolini aniqlash imkoniyatlari yangi metodologik kashfiyotlar bilan boyitildi.

7. Eposning milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlardagi o'rni

Mustaqillik yillari folklorshunosligining markaziy muammolaridan biri — milliy o'zlikni anglashda klassik adabiy va folklorik yodgorliklarning vazifalarini ilmiy asosda belgilashdir. “Alpomish” bu jihatdan o'zbek xalqi ma'naviy-madaniy o'zligining eng yorqin ifodalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Eposda aks etgan qadriyatlar tizimi — vatanparvarlik, halol mehnat, oilaviy sadoqat, qariyalarga hurmat, mehmondo'stlik, do'stlik va birodarlik kabi sifatlarni — milliy ma'naviyatning negizini tashkil etadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqqoniy bo'lishni, vatanimizni, oila qo'rg'onimizni qo'riqlashni, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishni o'rgatadi. Mazkur yondashuv eposning ma'naviy-tarbiyaviy salohiyatini davlat siyosati darajasida e'tirof etilishini, uning yosh avlod tarbiyasidagi vazifalarini aniqlashga xizmat qildi.

Eposning umuminsoniy qadriyatlardagi o'rni esa undagi insonparvarlik, adolat, sevgi va sadoqat, oilaviy mustahkamlik, urug'lar va xalqlar birligi singari qadriyatlarning umumbashariy mohiyatga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Bu jihatdan “Alpomish” “Manas”, “Edige”, “Ko'r o'g'li”, “Forsaytlar haqidagi saga”, “Nibelunglar qo'shig'i” singari jahon eposlari qatorida munosib o'rin egallaydi va jahon madaniyati xazinasini boyitadi.

Muhokama

Mustaqillik davri (1991–2024) o'zbek folklorshunosligida “Alpomish” eposi tadqiqotlari natijasida bir qator muhim ilmiy-nazariy yutuqlarga erishildi. Eposning epik tabiati, badiiy-uslubiy xususiyatlari, tarixiy-genetik ildizlari, versiyaviy xilma-xilligi, motivlar evolyutsiyasi singari fundamental masalalar yangi metodologik yondashuvlar asosida tahlil etildi. Ayni paytda, sovetlar davriga xos bo'lgan mafkuraviy yondashuvlar o'rnini germenevtik, mifopoetik, etnolingvistik va qiyosiy-tipologik metodologiyalar egalladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mustaqillik davri folklorshunosligida bir qator hal etilmagan masalalar mavjudligini ham ko'rsatdi.

Birinchiidan, eposning matn xususiyatlarini raqamli (kompyuterli) tahlil usullari yordamida oʻrganish endi shakllanmoqda; korpusli lingvistika va digital humanities yutuqlaridan keng foydalanish kerakligi sezilmoqda.

Ikkinchiidan, “Alpomish”ning chet ellardagi turkiy ozchiliklar — tatar, bashqir, oltoy va boshqalar — repertuaridagi shakllarini sistemli oʻrganish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Uchinchiidan, eposni jahon eposshunosligi kontekstida qiyosiy oʻrganish va xalqaro ilmiy nashrlarda targʻib qilish vazifalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Yana bir muhim muammo — eposni zamonaviy ommaviy madaniyat shakllari (kino, animatsiya, raqamli media, gamifikatsiya) orqali yosh avlodga yetkazish va folklor merosini transformatsiyaga uchratmasdan saqlash oʻrtasidagi muvozanatni topishdir. Bu masala folklorshunoslik, pedagogika, kulturologiya va sanʼatshunoslik fanlari hamkorligini taqozo etadi.

Xulosa

Mustaqillik yillarida olib borilgan “Alpomish” tadqiqotlari eposning oʻzbek xalqi maʼnaviyati va madaniyati uchun qanchalik muhim oʻrin egallashini yana bir bor isbotladi.

Dostonning epik tabiatini, badiiy-uslubiy xususiyatlarini va turkiy xalqlar madaniyati bilan bogʻliqligini oʻrganish uning xalqqa va butun insoniyatga taʼsirini ilmiy asosda yoritishga imkon yaratdi. Oʻzbek va xorijiy tadqiqotchilarning ishtirokida amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar dostonning epik obrazlar tizimi, motivlar evolyutsiyasi va milliy ruhiyat bilan chambarchas bogʻliqligini ochib berdi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi: birinchiidan, mustaqillik davrida “Alpomish” tadqiqotlari sovet davrining mafkuraviy cheklovlaridan xalos boʻlib, milliy oʻzlikni anglash, anʼanaviy qadriyatlarni tiklash va dunyo folklorshunoslik fani bilan integratsiyalashuv yoʻnalishida tub oʻzgarishlarni boshidan kechirdi; ikkinchiidan, eposning matn-poetikasi, tarixiy-genetik ildizlari, versiyaviy koʻpligi va epik timsollar tizimi atrofidagi tadqiqotlar yangi metodologik yondashuvlar asosida tubdan boyidi; uchinchiidan, doston nafaqat oʻtgan asrlar merosi, balki hozirgi va kelajak avlod tarbiyasida muhim adabiy va maʼnaviy vosita sifatida ilmiy asosda qadrlanmoqda.

Istiqbolda “Alpomish” eposi tadqiqotlarining ilmiy nuqtai nazardan rivojlanishi quyidagi yoʻnalishlarda kutilmoqda: raqamli folklorshunoslik metodlarini joriy etish; eposning xorijdagi turkiy versiyalarini sistemli oʻrganish; jahon eposshunosligi bilan integratsiyalashuv va ilmiy hamkorlik; eposning zamonaviy ommaviy madaniyatdagi qabul qilinishi va transformatsiyasi masalalarini oʻrganish. Bu yoʻnalishlardagi tadqiqotlar “Alpomish”ning maʼnaviy-madaniy salohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga, uning jahon adabiy-folklorik xazinasidagi oʻrnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. “Alpomish” dostonining oʻzbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968. – 184 b.
2. Mirzayev T. Oʻzbek xalq qahramonlik eposi. – Toshkent: Fan, 1996. – 222 b.
3. Sarimsoqov B. “Alpomish” — klassik epos namunasi // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1999. – № 5. – B. 3–9.
4. Sarimsoqov B. Oʻzbek folklorining janr xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005. – 232 b.
5. Saidov M. Oʻzbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: Fan, 1969. – 184 b.

6. Yo‘ldoshev Q. “Alpomish” talqinlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 96 b.
7. Yormatov I. O‘zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida): filol.fan.nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1995. – 28 b.
8. Норкулова Ш.Т. “Алпомиш” достонининг ономасиологик асослари (рисола). – Термиз: Сурхон-Нашр, 2016. – 64 б.
9. Mirzayev T. Alpomish dostonining tarixiy asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1999. – № 4. – B. 12–18.
10. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni / Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti; nashrga tayyorlovchi T.Mirzayev. – Toshkent: Sharq, 1998. – 400 b.